XALQ DEPUTATLARI DO‘STLIK TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Do'stlik tuman Do'stlik ko'chasi 16 uy +998 99 686 5523 dustlikkengash@mail.ru

2024-yil 7-avgust VI-51-99-3-47-K/24 Do‘stlik tumani

Do‘stlik tumanining Mirzacho‘l, Arnasoy, Paxtakor tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Do‘stlik tuman kengashi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Do‘stlik tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha hududiy komissiyasining “Do‘stlik tumanining Mirzacho‘l, Arnasoy, Paxtakor tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

2. Quyidagilar:

- Do‘stlik tumanining Mirzacho‘l, Arnasoy, Paxtakor tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga muvofiq;

- Do‘stlik tumanining Mirzacho‘l, Arnasoy, Paxtakor hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashidan so‘ralsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (B.Qorayev)ga mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining o‘rinbosari A.Latifov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi  DARVISHEV SHAVKAT TURAYEVICH

Xalq deputatlari Do‘stlik tumani
Kengashining
2024-yil 7-avgustdagi
VI-51-99-3-47-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati Do‘stlik tumanining Mirzacho‘l, Arnasoy, Paxtakor tumanlari hamda Sirdaryo viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining

T A V S I F I

Do‘stlik tumani, Mirzacho‘l tumani, va Arnasoy tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy yo‘l bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1–nuqta deb qabul qilindi. WGS-84 koordinatalar tizimda, *(shimoliy kenglik 40°38'33,374",sharqiy uzunlik 67°56'56,069").*

A dan B gacha Mirzacho‘l tumani yerlari bilan 1–12-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

1- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2671 metr masofani o‘tib yo‘l burilishida joylashgan 2-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°37'43,956",sharqiy uzunlik 67°58'29,336").*

2 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 1808 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°37'53,871",sharqiy uzunlik 67°59'44,867").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 876 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 4-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°37'58,637",sharqiy uzunlik 68°0'21,599").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 1422 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 5-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°38'6,526",sharqiy uzunlik 68°1'21,204").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining avval janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 242 metr, keyin g‘arb tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 131 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 6-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°38'4,780",sharqiy uzunlik 68°1'35,193").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 224 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 7-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°38'5,931",sharqiy uzunlik 68°1'44,589").*

7-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3121 metr masofani o‘tib o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37'45,278",sharqiy uzunlik 68°3'54,583").*

8-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 5029 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°37'11,420",sharqiy uzunlik 68°07'23,816").*

9-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1074 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°36'46,155",sharqiy uzunlik 68°07'54,987").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda avtomobil yoʻli va temir yoʻlni 83 metr masofada kesib oʻtib dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'43,688", sharqiy uzunlik 68°07'57,602").*

11-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 6128 metr masofani oʻtib, Doʻstlik, Mirzachoʻl, tumanlari va Sirdaryo viloyatining Oqoltin tumani cheraga chiziqlari kesishgan joy yoʻl boʻyida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'14,957", sharqiy uzunlik 68°10'50,296").*

B dan D gacha Sirdaryo viloyati Oqoltin va Sardoba tumanlari yerlari bilan 12-16 nuqtalar oralig'idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

12-nuqtadan chegara chizigʻi zovurni kesib oʻtib, zovurga tutashadi, va avval janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1870 metr masofada zovurni kesib oʻtib dala tuproq yoʻliga tutashadi, va yoʻlning sharq tomoni bilan oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 1829 metr masofada zovurga tutashadi va janubiy-janubiy-gʻarbiyyoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 5453 metr masofada Chap tarmoq kanalini kesib oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'52,638",sharqiy uzunlik 68°8'18,890").*

13-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 4727 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'19,831",sharqiy uzunlik 68°11'34,914").*

14-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan zovurga tutashadi va umumiy janubiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 5876 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'10,936",sharqiy uzunlik 68°11'27,771").*

15-nuqtadan chegara chizigʻi janubiy sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 2606 metr masofada M-39 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib yoʻl boʻyidagi 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'10,862", sharqiy uzunlik 68°12'45,094").*

16-nuqtadan chegara chizigʻi M-39 avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 6999 metr masofani oʻtib, Doʻstlik, Paxtakor tumanlari va Sirdaryo viloyatining Sardoba tumani chegara chiziqlari kesishgan joy yoʻl boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'22,516",sharqiy uzunlik 68°9'26,591").*

D dan E gacha Paxtakor tumani yerlari bilan 16-28-nuqtalar oralig'idagʻi chegaralar tavsifi quyidagicha:

17-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy yoʻnalishda 36 metr masofada M-39 avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi, keyin quruq chegara chizigʻi orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 182 metr masofada kanalni kesib oʻtib, zovurga

tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan oʻz yonalishini oʻzgartirmagan holda 4968 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24'27,306", sharqiy uzunlik 68°06'59,608").*

18-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʼylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 2058 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'33,908", sharqiy uzunlik 68°07'04,671").*

19-nuqtadan chegara chizigʻi zovurni kesib oʻtib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 1878 metr masofada zovurni kesib oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°25'42,314",sharqiy uzunlik 68°05'45,772").*

20-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 2895 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 21-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°25'55,169",sharqiy uzunlik 68°03'44,224").*

21-nuqtadan chegara chizigʻi zovurni kesib oʻtib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2299 metr masofada kanalni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24'42,265",sharqiy uzunlik 68°03'24,582").*

22-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 4754 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'7,605",sharqiy uzunlik 68°00'36,693").*

23-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 4418 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'25,229",sharqiy uzunlik 68°01'26,023").*

24-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlidan zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2714 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashagan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'50,049",sharqiy uzunlik 68°01'54,935").*

25-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 81 metr masofada temir yoʻl va avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni bilan oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 63 metr masofani oʻtib, latokga tutashadi keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda latokning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 60 metr masofani oʻtib, zovurga tutashadi keyin zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2824 metr masofani oʻtib avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'15,474",sharqiy uzunlik 67°59'53,571").*

26-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda avtomabil yoʻli va zovurni 112 metr masofada kesib oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'16,916",sharqiy uzunlik 67°59'49,195").*

27-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 934 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'49,551",sharqiy uzunlik 67°59'32,269").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4256 metr masofani o‘tib, Do‘stlik tumani, Paxtakor tumani va Arnasoy tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yo‘li bo‘yidagi 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'31,883",sharqiy uzunlik 67°56'33,429").*

F dan A gacha Arnasoy tumani yerlari bilan 29 – 1 – nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

29-nuqtadan chegara chizig‘ito‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 35 metr masofada kanalni kesib o‘tib, beton ariqqa tutashadi va umumiy shimoliy yo‘nalishda beton ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1144 metr masofani o‘tib, latok bo‘yidagi 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'09,580", sharqiy uzunlik 67°56'30,141").*

30-nuqtadan chegara chizig‘i beton ariqdan latokga o‘tadi va shimoliy yo‘nalishda latokning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan 1206 metr masofani o‘tib, latok bo‘yidagi 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'48,563",sharqiy uzunlik 67°56'26,096").*

31-nuqtadan chegara chizig‘izovurni kesib o‘tib zovurga tutashadi va sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 878 metr, masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'49,210",sharqiy uzunlik 67°57'3,380").*

32-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 90 metr masofada zovurni va avtomabil yo‘lini kesib o‘tib tomorqa chegarasiya tutashadi, va tomorqa chegarasi bo‘ylab o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda avval 147 metr keyin sharqiy yo‘nalishda 25 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'56,929",sharqiy uzunlik 67°57'4,161").*

33-nuqtadan chegara chizig‘izovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 1817 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'55,770",sharqiy uzunlik 67°57'2,504").*

34-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 199 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'55,518", sharqiy uzunlik 67°56'54,039").*

35-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 84 metr masofada zovurni,kanalni va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘lga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 4246 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘l bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'11,357",sharqiy uzunlik 67°56'10,490").*

36-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3005 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'45,838",sharqiy uzunlik 67°55'39,377").*

37-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan zovurga tutashadi keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 4380 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'4,610",sharqiy uzunlik 67°52'41,323").*

38-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 3378 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida

joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'49,628",sharqiy uzunlik 67°52'0,707").*

39-nuqtadan chegara chizigʻizovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 1351 metr masofada zovurni va avtomabil yoʻlini kesib oʻtib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 3728 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'34,253",sharqiy uzunlik 67°51'57,881").*

40-nuqtadan chegara chizigʻi avtomabil yoʻlini kesib oʻtib, zovurga tutashadi va sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1808 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan, 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'31,711",sharqiy uzunlik 67°53'14,765").*


41-nuqtadan chegara chizigʻisharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 2819 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan, 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'27,408",sharqiy uzunlik 67°55'14,638").*

42-nuqtadan chegara chizigʻijanubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 2908 metr masofada kanalni kesib oʻtib, Doʻstlik tumani, Arnasoy tumani va Mirzachoʻl tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'33,374",sharqiy uzunlik 67°56'56,069").*

Xalq deputatlari Do‘stlik tumani
Kengashining
2024-yil 7-avgustdagi
VI-51-99-3-47-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Jizzax viloyati Do'stlik tumani ma'muriy-hududiy chegarasini belgilash ishlari bo'yicha

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha *Mirzacho'l tumani yerlari*
B dan D gacha *Sirdaryo viloyati yerlari*
D dan E gacha *Paxtakor tumani yerlari*
E dan A gacha *Arnasoy tumani yerlari*

Shartli belgilar

- Chegaraning burilish nuqtalari
- Viloyatlar chegarasi
- Tumanlar chegarasi